

HUQUQNI MUHOFAZA QILUVCHI ORGANLARNING ASOSIY VAZIFALARI VA JAMIYATIMIZDA TUTGAN O'RNI.

Davronov Ma'rufjon Orifjonovich

Buxoro Davlat Universiteti Tarix va Yuridik fakulteti

Yurisprudensiya yo'nalishi 1-bosqich talabasi

E-mail: marufjondavronov6@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8038080>

Annotatsiya Huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini takomillashtirish davlatning bugungi kundagi asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi, chunki fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklari himoya qilish, qonuniylikni ta'minlashda ularning o'rni katta. Jinoyatchilikni oldini olish, ularni barvaht aniqlash ularning kelib chiqish sabablarini o'rganish, huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirishda huquqni muhofaza qiluvchi organlar salmoqli hissa qo'shib kelmoqda. Mazkur maqolada huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimiga qaysi organlar kirishi va ularning asosiy vazifalari nimadan iborat ekanligi bugungi kunda sohada amalga oshirilayotgan so'ngi o'zgarishlar va ularning jamiyatimizdagi huquqbuzarliklarni oldini olishda tutgan o'rniga bag'ishlanadi.

Kalit so'zlar: Huquqni muhofaza qiluvchi organlar, huquq, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, huquqbuzarliklar, davlat, farmon, qonun, qaror, xalqaro shartnoma, prinsiplar, mahalliy, hokimiyat, institutsional, transparensiya.

Kirish

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimov "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanda chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish Konsepsiyasi"da bu borada amalga oshirilgan ishlar to'g'risida "Mamlakatimizda demokratik yangilashning bugungi bosqichidagi eng muhim yo'nalishlaridan biri – qonun ustuvorligi va qonuniylikni mustahkamlash, shaxs huquqi va manfaatlarini ishonchli himoya qilishga qaratilgan sud-huquq tizimini demokratlashtirish va liberallashtirishda iboratdir" deb takidlab o'tadilar.[1]

O'zbekistonda qisqa tarixiy muddat ichida milliy davlatchilikni shakllantirishning demokratik asoslari yaratildi. Mamlakatimiz barcha rivojlangan huquqiy davlatlardagi kabi uch hokimiyatga, ya'ni qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga ajratildi. Xalq farovonligi yo'lida kuchli huquqiy davlatdan fuqarolik jamiyati sari ildam qadam qo'yish maqsadida erkin bozor munosabatlariga asoslangan kuchli iqtisodiyot barpo etildi. Shu tarzda, Vatanimiz xalqaro huquqning to'laqonli va teng huquqli sub'ektiga aylandi. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar, faoliyatini ham tubdan takomillashtirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar olib bo'rildi desam ham xato bo'lmaydi.

Huquqni muhofaza qiluvchi organlar — qonuniylik va huquqtartibotni muhofaza qilish, inson huquqlari va erkinliklarini himoyalash, jinoyatchilik va boshqa huquqbuzarliklarga qarshi kurashda ular o'z faoliyatini qonun va demokratik prinsiplarga asoslangan holda amalga oshiradilar fuqarolar va mehnat jamoalari jamiyat va davlatning huquq va erkinliklarini himoya qiladilar huquqbuzarliklarni oldini olish qonun va huquqiy tartibotni buzgan shaxslarga davlatning majburlov choralarini qo'llaydilar.[2]

Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirib boorish, qonun ustuvorligini ta'minlash va qonuniylikni mustahkamlash huquqni muhofaza qiluvchi organlarning bugungi kundagi asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Asosiy qism:

Huquqni muhofaza qiluvchi organlar, jamoatning qonuniy, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy tartibini muhofaza qilish va shaxsiy huquqlarni himoya qilishda muhim rol o'ynaydigan instansiyalardir. Ularning vazifalari, huquqiy munosabatlarni tartibga solish, inson huquqlarini himoya qilish va o'zgartirish, qonunlarni amalga oshirish va shaxsiy huquqiy munosabatlarda kelib chiqqan munosabatlar bo'yicha muhim qarorlar qabul qilishdir. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar ijtimoiy maslahatlarda, inson huquqlarini muhofaza qilish va insoniyatga qarshi qilmish bilan bog'liq shikoyatlarni qabul qilish, tahlil qilish, yechish va mazkur masalalar yuzasidan tavsiyalar berish bilan shug'ullanadi. Ular o'z faoliyatlarini inson huquqlarini himoya qilish, zulm va huquqiy qasddan nafsiy va ma'muriy shu bilan birga jinoiy, iqtisodiy, siyosiy qilmishlardan himoya qilish bilan bog'liq bo'lgan jinoyatlarni barvaqt aniqlaydi, ularning kelib chiqish sabablarini o'rganadi va huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirib tegishli chora tadbirlarni ko'radi. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar, muhim huquqiy va siyosiy vazifalarni bajarish uchun ularga yuridik imtiyoz berilganligi va ularning faoliyatlarini qonunchilik bilan belgilangan tartibda amalga oshirishi muhimdir. Ular o'z faoliyatlarini amalga oshirishda huquqiy va ma'muriy ishlarni mustaqil tarzda ko'rib chiqishlari va tahlil qilishlari, maqsadlariga erishish uchun strategik yonalishlarni belgilashlari, huquqiy ta'limni tashkil etishlari va shubhali masalalar yuzasidan muhokama qilishlari hamda qonun hujjatlari bilan tanishishlari mumkin. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar, jamoatning huquqiy tarbiyasi, demokratik huquqlar va erkinlikni o'rgangan holda huquqiy mustaqillikni ta'minlash va insoniyatni muhofaza qilishda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, huquqni muhofaza qiluvchi organlarda muhim vazifalarni bajarish uchun manan yutuk, jismonan baqquvvat bo'lgan huquqiy ongi va huquqiy madaniyati yuksak bo'gan kadrlarni tayyorlash, ularga huquqiy bilim va malaksini oshirish uchun tashkiliy tadbirlar o'tkazish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2019.08.20 dagi 69-son qarori. "Huquqni muhofaza qiluvchi organlar, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tizimida huquqiy bilimni oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'risida"dagi qarorda O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirligi, Milliy gvardiya va Adliya vazirligining 2019/2020 o'quv yilidan boshlab O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirligi Akademiyasi, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xafsizligi universiteti va Toshkent davlat yuridik universitetining yuqori natijalar qayd etgan kursantlari o'qishning keyingi bo'qichini bevosita amalyotda o'tqazilishidagi takliflarga rozilik berildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat bo'shqaruvi akademiyasining hududiy filiallarini tashkil etish to'g'risida" 2018- yil 6-avgustdagi PQ- 3901-son qaroriga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat bo'shqaruv akademiyasi hududiy filiallarida davlat va jamiyat boshqaruvi soxasidagi rahbar kadrlarni malakasini oshirish kurslari tashkil etildi.

O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.A. Karimovning "O'zbekistonda butun huquq va sud tizimini takomillashtirish dasturi mamlakat ichidagi jinoyatchilik va korrupsiyaga qarshi kuchli chora deb hisoblamoq darkor. Bir tamondan, qonunning mutloq ustunligi va fuqarolarning huquqlari kafolatli himoya qilinishi ushbu dasturning maqsadi bo'lishi lozim" deb aytib o'tadilar.[3]

Bugungi kunda davlat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati o'rnatilgan bo'lib, jamoatchilik nazorati sub'ektlari davlat organlari faoliyati ustidan qator shakllarda, ya'ni davlat organlariga murojaatlar hamda so'rovlar yo'llash, davlat organlarining ochiq hay'at majlislarida qatnashish, jamoatchilik muhokamasi, jamoatchilik eshituvi, jamoatchilik monitoringi, jamoatchilik ekspertizasi, jamoatchilik fikrini o'rganish, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan ijro etuvchi hokimiyat organlarining, boshqa tashkilotlar va muassasalarning hisobotlarini eshitish kabi usullarda nazorat olib boradi. Referendumlarga, saylovlarga tayyorgarlik ko'rish va ularni o'tkazish, shuningdek mudofaa, jamoat xavfsizligi va huquq-tartibot, tezkor-qidiruv faoliyati, surishtiruv, dastlabki tergov, sud ishlarini yuritish, jazolarni ijro etish sohasida jamoatchilik nazoratini amalga oshiradi.[4]

O'zbekiston Respublikasi huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimiga hozirgi kunda quyidagi davlat organlari kiradi;

1. Prokuratura organlari. O'zbekiston Respublikasi qonuni "Prokuratura to'g'risida"gi qonunining (yangi tahriri) 2001-yil 29-avgust.
2. Adliya organlari. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat huquqiy siyosatini amalga oshirishda adliya organlari va muassasalari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2018-yil 13-apreldagi PF-5415-son Farmoniga muvofiq:
3. Davlat xavfsizlik xizmati. O'zbekiston Respublikasi "Davlat xavfsizlik xizmati to'g'risida" Qonunchilik palatasi tomonidan 2018-yil 15-martda qabul qilingan Senat tomonidan 2018-yil 29-martda ma'qullangan.
4. Milliy gvardiya. O'zbekiston Respublikasi "Milliy gvardiyasi to'g'risida"gi qonun Qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 12-noyabrda qabul qilingan Senat tomonidan 2019-yil 14-dekabrda ma'qullangan.
5. Davlat bojxona xizmati. "O'zbekiston Respublikasining "Davlat bojxona xizmati to'g'risida"gi qonuni Qonunchilik palatasi tomonidan 2018-yil 6-sentabrda qabul qilingan Senat tomonidan 2018-yil 27-sentabrda ma'qullangan.
6. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byuroosi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-maydagi "Elektr energiyasi va tabiiy gaz yetkazib berish hamda iste'mol qilish sohasida to'lov intizomini yanada mustahkamlash, shuningdek, ijro ishi yuritish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5059-son.
7. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti. O'zbekiston Respublikasi "Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 23-maydagi PF-5446-son.
8. Ichki ishlar organlari. O'zbekiston Respublikasi "Ichki ishlar organlar to'g'risida" qonuni. Qonunchilik palatasi tomonidan 2016-yil 12-avgustda qabul qilingan Senat tomonidan 2016-yil 24-avgustda ma'qullangan.[5]

Prezident devonida Islohotlarning huquqiy ta'minoti va huquqni muhofaza qilish faoliyatini muvofiqlashtirish xizmati tashkil etildi. Xizmat Prezident devonining Siyosiy-huquqiy masalalar xizmati negizida tashkil etilmoqda. Bu Prezidentning 3.04.2018 yildagi Amalga oshirilayotgan islohotlarning huquqiy kuzatuv faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlariga doir PF-5395-son Farmonida nazarda tutilgan.

Yangi tuzilgan Xizmatning ustuvor vazifalari va vakolatlari

Quyidagilar yangi tuzilma vazifalari hisoblanadi:

- davlat boshqaruv tizimining samarali faoliyat yuritishiga, ijtimoiy-iqtisodiy va sud-huquq sohalaridagi islohotlarning to'liq amalga oshirilishiga to'siq bo'layotgan tizimli muammo va kamchiliklar, huquqiy yetishmovchiliklarni aniqlash;
- adliya, prokuratura va ichki ishlar organlarining zimmasiga yuklatilgan vazifalarning bajarilishi yuzasidan faoliyatini takomillashtirish va muvofiqlashtirish, ular faoliyatini tizimli tahlil va monitoring qilish;
- sudlarda, adliya, prokuratura va ichki ishlar organlarida davlat kadrlar siyosati o'tkazilishini ta'minlash;
- joylarda ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etish, islohotlar strategiyasini mintaqalarda amalga oshirishda mahalliy davlat hokimiyati organlarining mustaqilligini oshirish yuzasidan takliflarni ishlab chiqish;
- Hukumat faoliyati samaradorligini oshirish, uning ijro etuvchi apparatini optimallashtirish, vazirliklarning ularga topshirilgan sohalaridagi mas'uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish;
- davlat boshqaruvi tizimi, ijtimoiy-iqtisodiy va sud-huquq sohalarini isloh qilish yo'nalishlarini ishlab chiqish borasida davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining sa'y-harakatlarini birlashtirish;
- Prezidentning fuqarolik, siyosiy boshpana taqdim etilishi, shuningdek O'zbekiston sudlari tomonidan sudlangan shaxslarga amnistiya qo'llanilishi va avf etilishi masalalari bo'yicha konstitutsion vakolati amalga oshirilishini ta'minlash va boshqalar.[6]

Huquqni muhofaza qiluvchi organlar huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasida salmoqli hissa qo'shib kelmoqda jumladan ular shaxsning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta'minlash jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish, qonuniylikni mustahkamlash, shuningdek korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish;

huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, o'rganish, bartaraf etish chora-tadbirlarini ko'rish;

jinoyatni salbiy oqibatlarini tugatishga qaratilgan huquqiy, ruhiy, iqtisodiy-siyosiy hamda tashkiliy chora-tadbirlar olib bo'rish;

huquqbuzarlikdan jabrlanuvchilarni, huquqbuzarliklar sodir etishga moyil bo'lgan, huquqbuzarlik sodir etgan, shu jumladan ilgari sudlangan va ozodlikdan mahrum etish joylaridan ozod qilingan shaxslarni ijtimoiy rehabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirish jismoniy shaxslarning huquqbuzarlikdan jabrlanuvchiga aylanishi xavfini kamaytirish kabi ishlarni bajarmoqdalar.

Sud va huquqni muhofaza qilish organlarining huquqni qo'llashdagi asosiy yo'nalishlari:

- ❖ fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish;
- ❖ jamoat tartibini lozim darajada ta'minlash;
- ❖ jamoat xavfsizligini ta'minlash;
- ❖ profilaktik tadbirlar uchun huquqbuzarliklarning oldini olish;
- ❖ huquqbuzarlik faktlarini aniqlash va ularni tekshirish;
- ❖ qonunda belgilangan tartibda aybdorlarni javobgarlikka tortish;
- ❖ belgilangan davlat majburlov choralari ko'rish va huquqbuzarlarni rad qilish;

- ❖ qarorlarning bajarilishini ta'minlash;
- ❖ malakali yuridik yordam ko'rsatish.[7]

Xulosa

“Huquqni muhofaza qiluvchi organlarni faqat va faqat xalq manfaati yo'lida og'ishmay xizmat qiladigan idoralarga aylantirishimiz lozim” deya ta'kidladi muhtaram Praezdentimiz Shavkat Mirziyoyev. Huquqni muxofaza qiluvchi organlar, insoniyatning adolatli hayoti kechirishini himoya qilishda katta rol o'ynaydilar. Ular o'z faoliyatlarini transparensiya asosida amalga oshiradilar va jamiyat bilan ochiq aloqada bo'lib, huquqiy axborotlarni tarqatish va huquqiy munosabatlarda hamkorlik qilish bilan jamiyatimizning huquqiy bilim darajasini yuksaltishga xizmat qiladilar. Bugungi kumda O'zbekiston aholisining asosiy qismini yoshlar tashkil qilmoqda shuning uchun yosh avlod ongiga huquq va burch, halollik va poklik tushunchalarini bilan odob-axloq normalarini chuqur singdirib borish zarur. Huquqiy ong va huquqiy madaniyatini yuksaltirib borish, ularda korrupsiya va boshqa huquqbuzarliklarga nisbatan murosasizlik munosabatini shakllantirish darkor. Ularning asosiy vazifalari tarkibiga quydagilarni kiritish mumkin masaklan, qonun ustuvorligini ta'minlash, qonuniylikni mustahkamlash, fuqarolarning huquq hamda erkinliklarini ta'minlash, jamiyat va davlatning qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish, O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish, huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktika qilishdan iborat. Umuman olganda davlat organlarining faoliyati jamiyatning deyarli barcha sohalarini qamrab oladi. Bular, xususan, davlat va tashqi siyosatni rivojlantirish, iqtisodiyotni rivojlantirish, aholining farovonligi, fan, madaniyat, ta'limni rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish, ilm-fan, madaniyat, ta'limni rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida bevosita yoki bilvosita murojaat qiladi, huquqni muhofaza qilish organi, boshqa muhim funktsiyalarning bajarilishi, ayniqsa xavfsizlikni ta'minlash ularning o'rni salmoqlidir.

References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanda chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish Konsepsiyasi”
2. ru.m.wikipedia.org
3. I.A.Karimov. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xafsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.
4. O'zbekiston Respublikasi “Jamoatchilik nazorati to'g'risida”gi qonun.
5. www.lex.uz
6. https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda_yangi/prezident_devonida_islohotlarning_huquqiy_taminoti_va_huquqni_muhofaza_qilish_faoliyatini_muvofiqlashtirish_hizmati_tashkil_etiladi.
7. O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi Toshkent davlat yuridik universitetining ixtisoslashtirilgan filiali Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar o'quv qollanma.